

**REPRODUKTIV MADANIYAT VA SOG'LOM TURMUSH TARZI  
MASALALARI JAMIYAT TARAQQIYOTINING O'ZIGA XOS KO'RINISHI  
SIFATIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10071807>

**Yaxshimbekova Sayyora Kamalovna**

*Alfraganus universiteti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya**

*bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini reproduktiv madaniyatini tarbiyalash borasidagi davlat siyosati va uning huquqiy ahamiyatiga bugunning dolzarb vazifasi. Ushbu maqola reproduktiv madaniyatni shakllantirishning tarixiy-tadrijiy rivojlanishiga bag'ishlangan.*

**Kalit so'zlar**

*jismoniy tarbiya, reproduktiv madaniyat, davlat siyosati, intellektual meros, umumbashariy qadriyat, madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiya.*

Oila hamisha, har qanday turmushda ham kecha, bugun va kelajakni bog'lab turuvchi ko'priq vazifasini bajarib kelgan. Tarixan shakllanib kelgan o'zbek oilaviy tarbiya jarayonida oila qurish, farzand ko'rish va uni tarbiyalash kabi masalalar asosiy qoidalar bo'lib kelgan. Bu darajaga erishishda buyuk mutafakkirlarimiz Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobi, Abu ali Ibn Sino, Maximud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Jamoliddin Davoniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlarning madaniy-ma'rifiy merosi asosiy zamin bo'lib xizmat qilgan.

Umuman olganda oila, oilaviy munosabatlar va farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalar insoniyat tarixi bilan bog'liq muammolardandir. Psixolog olim G'.B.Shoumarov oilaviy munosabatlar va reproduktiv salomatlik masalalarining ilmiy - tarixiy asoslarini tadqiq etar ekan, «...oilada jinsiy hayotning psixogenetik qoidalariga amal qilishning o'ziga xos usullari ilk ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq mavjud bo'lgan», deya ta'kidlaydi [1].

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida, deydi tadqiqotchi, oilaviy munosabatlarning ijtimoiy boshqarila boshlanishining ma'lum bir bosqichlarida turlicha tabular (ta'qiqlashlar) mavjud bo'lgan. Bundan bir necha o'n ming yillar ilgari poligam oilalarda hukm surgan shunday tabulardan biri qabilaning a'zosi bulmish emizikli ayol bilan jinsiy hayot kechirishni ta'qiqlashga qaratilgan tabudir.

Buning boisi shundan iborat bo'lganki, u davrlarda qabila a'zolarining asosiy tirikchilik manbai ovchilik bo'lgan, erkaklar asosan ovchilik bilan shug'ullanib o'z o'ljalari bilan qabila a'zolarini boqishgan. U davr odamining tushunishicha, agar erkak kishi ovga chiqishidan oldin emizikli ayol bilan jinsiy hayot kechirsa, unga sut hidi yuqib qoladi, sut hidi esa ov vaqtida shu ovchi va uning sheriklari yoniga boshqa yirtqichlarni «chaqirishi» mumkin, ovga chiqqan erkakning o'zi boshqa bir yirtqichlarga o'lja bo'lib qolishi mumkin bo'lgan.

Shuning uchun ham ibtidoiy davrlarda emizikli ayollar bilan jinsiy hayot kechirish ta'qiqlangan. Bu esa o'z navbatida, oilada farzandlar tug'ilishi bilan bog'liq shart-sharoitlarni yaratishning o'sha davrdagi o'ziga xos qonunlari "tabiiy tanlanish" va "yashash uchun kurash" ta'siri ostida shakllangan usullaridan bo'lgan. Bu haqiqatdan ham ibtidoiy odamlarning avloddan avlodga, nasldan nasnga rivojlanib, takomillashib borishini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Chunki, shu tabular tufayli onalar bolalarini ular to 3-4 yoshga kirib, o'zları mustaqil ozuqa topib, o'zi uchun kurasha olgunlariga qadar «ona suti» bilan oziqlantirishga «majbur bo'lganlar». Bu esa, onalarning ham, bolalarning ham avloddan-avlodga sog'lomlashib, takomillashib borishini ta'minlagan ilk ibtidoiy omillardan biri bo'lgan [2].

Yuqorida keltirib o'tilgan dalillardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, haqiqatdan ham, oila, reproduktiv madaniyat, sog'lom turmush tarzi masalalari jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos ko'rinishi sifatida o'rganilgan, hayot tarziga singdirilgan.

Mazkur qarashlarning yana bir ilmiy-tarixiy asosi eramizdan avvalgi

VI-V asrlarda yaratilgan zardushtiyarning muqaddas kitobi sanalgan "Avesto"da ham keng yoritilgan. Fikrimizcha, «Avesto» da ahloq, odob, oila haqidagi qarashlar o'sha davrni ijtimoiy tuzum doirasida yoritilgan bo'lsa ham, undagi farzand ko'rish, uni tarbiyalash bilan bog'liq shunday fikrlar uchraydiki, ularni bugungi kunda ham fan to'la e'tirof etmoqda [3].

Masalan, "Avesto" da qarindoshlarni o'zaro oila qurishi man etiladi. Bundan tashqari mazkur asarda bola tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati masalasi o'z aksini topgan bo'lib, unda ko'p bolali oilalarga davlat g'amxo'rlik qilishi lozimligi ko'rsatiladi. Bu esa sog'lom naslni dunyoga keltirish va tarbiyalash masalasi sharq xalqlari uchun milliy qadriyat sifatida tan olinganligidan dalolat beradi [3].

Islom dinida ham oilaning shakllanishi, nikoh masalalari o'ziga xos tarzda mukammal ifodalananadi.

Islomda oila, unga tayyorgarlik ko'rileyotgan paytdan boshlanadi, deydi professor-olima M.Inomova o'zining "Oilada bolalarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi" nomli ilmiy risolasida. Jismonan nosog'lom, nasl-nasabini tayini bo'limgan, ahloqan buzuq, ma'naviy qashshoq insondan tug'ilgan farzandning tarbiyasi ham ancha qiyin kechadi. Shuning uchun oila qurmoqchi bo'lgan har bir yigit yoki qiz o'ziga umr yo'ldosh tanlashda bo'lajak farzandlarining otasi yoki onasining shaxsiy fazilatlari bilan birga, ularning nasliy pokligiga ham e'tibor bermog'i lozim. Islomiy sunnatda Payg'ambarimiz kelin yoki kuyov tanlash vaqtida uning xulqu odobiga, aql-idrokiga, nasl-nasabiga, jismoniy va ruhiy sog'lomligiga, iymon-e'tiqodiga e'tibor berishni ta'kidlab o'tganlar [4].

Ma'lumki, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hayotlik chog'larida aytgan so'zлari, qilgan ishlari, yo'l-yo'riqlari va ko'rsatmalari, pand-nasihatlari uning hadislari va sunnatlari hisoblanib, islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi manba sanaladi. Hadislarga oilaviy munosabatlar, farzand ko'rish, uni tarbiyalash, otaona va farzand munosabatlari, ahloqiy barkamollik masalalariga alohida e'tibor beriladi.

Hadisi Shariflarda sog'lom farzandni dunyoga keltirib tarbiyalashda ota-onaning vazifasi alohida uqtiriladi. Xususan, "Kelin tanlash vaqtida to'rtta narsaga albatta qiziqishadi: moliga, jamoliga, kasbiy mansabiga va dindoriga. Sen dindorini tanlagin" deyiladi. Chunki, mol, jamol vaqtinchalik, mansab esa kelin bilan birga kelmaydi, otasining uyida qoladi, ammo iymon-e'tiqod, aql-idrok, xulqu-odob, irsiy tozaligi u bilan doimo hamrohdir. Ana shunday fazilatlarga ega bo'lgan ayolning farzandlarini tarbiyalash osonroq bo'lishi uqtiriladi. [4]

Darhaqiqat, ona bo'lish ulug' bir ne'mat va nazirsiz bir sharafdir. Onalik vazifasini to'la ado etgan, qanoatli, odobli ona - baxt-saodatning mujassam timsolidir.

O'z ilmiy izlanishlarida tabiiy va ijtimoiy fanlarning eng dolzarb muammolarini yechishga e'tibor qaratgan Abu Nasr Farobiyning pedagogik fikrlarida oila, farzand tarbiyasi muammolari alohida o'rinn olgan. Mutafakkir fikricha, inson o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy mavjudotdir.

Chunki, har bir inson o'zgalarning ko'magisiz, jamiyatdan tashqarida kamolga yeta olmaydi. O'z navbatida jamiyat ham insonlarning o'zaro birikuvi yordamida o'zlarining moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi natijasida rivojlanib boradi. Farzand ko'rish, uni tarbiyalash ham faqatgina ota-onaga bog'liq bo'lib qolmasdan, mahalla-kuy, atrof-muhit ta'sirida bo'ladi. Farobiyning bu qarashlaridan shaxs ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat degan xulosa o'sha davrlardayoq shakllanganligini, oiladagi bola tarbiyasi jamiyatning mavjud

ijtimoiy-siyosiy tuzum talablari doirasidan kelib chiqib yo'lga qo'yilishi lozimligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi [5].

O'z zamonasining qomusiy bilimdoni bo'lgan al-Beruniy merosida oila va farzand tarbiyasi, sog'lom turmush tarzi muammolari o'ziga xos tarzda yoritilgan. Beruniy "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "E'tiqodlar va dinlar haqida", "Mineralogiya" kabi ko'pgina asarlarida shaxsning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasiga oid qimmatli fikrlarni yozadi.

Beruniy tan va ruh pokligi masalasini o'rtaga tashlab, oiladagi tozalik, pokizalik va tartiblilik haqida gapirib, vaqtida "tishni yuvish, ko'z va qovoqlarni toza tutish, tirnoqlarni olib turish, sillqlash, tanni toza tutish" kabi xislatlar sihat salomatlikdan tashqari inson go'zalligi, ma'naviy pokligini ham ta'minlaydi, deydi. Uning tan va ruh salomatligi haqidagi fikrlari yoshlarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish borasidagi bugungi kun talablari bilan hamohangdir.

Beruniy oilaning reproduktiv vazifasining mohiyatini jamiyatga sog'lom shaxslarni tarbiyalab, yetishtirib berish bilan bog'laydi va bunda ota-onalarga qarata bolani mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g'azablanishdan, qo'rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni hohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligi uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turlicha munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi, yaxshi xulqlarni paydo bo'lishi, bola ruhiyatiga ta'sir qilibgina qolmay, uning fiziologik o'sishiga ham yordam beradi. Yomon xulq esa turlicha mijoz buzilishlariga ham olib keladi. Aksincha, bola organizmidagi o'zgarishlar uning ruhiyatidagi, hatti-harakatidagi o'zgrishlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bu fikrlari bilan bola xulq-atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi [6].

Tabobat ilmida alohida o'rinni tutgan yirik tadqiqotlar sohibi Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosida sihat-salomatlik tarbiyasi, farzand ko'rish bilan bog'liq masalalar muhim o'rinni egallaydi.

Mutafakkir hayotda inson salomatligi oilaviy muammolar uchungina emas, balki ijtimoiy masalalarini sog'lomlashtirishda ham muhim ekanligiga e'tibor qaratadi [7]. Olimning "Urjuza", "Tib qonunlari", "Yurak dorilari" asarlari esa insonning turmushidagi katta ahamiyatga ega bo'lgan sihat salomatli yashash, sog'lom nasl qoldirish masalalariga to'xtaladi. Ibn Sino "Tib qonunlari" nomli asarida bolaga tug'ilmasdan turib g'amxo'rlik qilish uchun onaning salomatligi, jismoniy va ruhiy pokligi zarurligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, mutafakkir farzand ko'rish, sog'lom nasl qoldirish uchun ayollarning homiladorlik davri ruhiy zo'riqishlarsiz o'tishi, bola tug'ilgach uni ona suri bilan boqish, tez-tez homilador bo'lishdan o'zini tiyish, mijozga e'tibor berishni ta'kidlaydi [8].

Mavjud manbalarni taxlilidan, keltirilgan nazariy fikrlardan ko'rinish turibdiki mamlakatimizda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda reproduktiv madaniyatini takomillashtirish bo'yicha o'ziga xos milliy, tarixiy tajriba mavjud. Bu tajribalarni ilmiy asosda o'rganish va tahlil etish bizda quyidagi xulosalarni takomillashtirishga asos bo'ldi:

Oila va oilaviy munosabatlar, farzand ko'rish va uni tarbiyalash borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar oilaviy tarbiyani tashkil etishda o'ziga xos uslubiy yo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizning sog'lom avlodni takomillashtirish borasidagi talablari mazkur ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Sog'lom oila, sog'lom avlodni shakllantirish masalalari sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida o'z aksini topgan bo'lib, uning asosida ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasi yotadi.

Sharq mutafakkirlari oila va jamiyatni dialektik birlikda olib qarab, oilaning mustahkamligi, farzand ko'rish, nasl qoldirishdagi madaniyatlilik darjasini jamiyat rivojini kafolatlaydi deya ta'kidlab o'tganlar.

Oilada er-xotinning tengligini to'rt omil: mol, nasab, husn va iymon bilan o'lchab, yoshlarni oila qurishga tayyorlashda mazkur omillarning mavjudligiga e'tibor qaratish oila barqarorligi, nasl pokligini ta'minlaydi deb hisoblaganlar.

Demak keltirilgan xulosalarga tayanadigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining reproduktiv madaniyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan didaktik tizim mazmunida ajdodlarimiz, buyuk mutafakkirlarning qarashlari, yondashuvlari, tarixiy tajribalari, hikmatlari hamda Hadisi sharif, Qur'oni Karim oyatlari muayyan izchillikda o'rinni olishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan tibbiy-biologik va pedagogik-psixologik fanlar xususan, "Valeologiya" bosqichidagi "Reproduktiv salomatlik", "Zararli odatlar va yoshlarni ulardan asrash", "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" bosqichidagi "Salomatlik va shaxsiy gigiyena", "Oila psixologiyasi" bosqichidagi "Nikoh va oila munosabatlari", "Reproduktiv salomatlikning ijtimoiy, psixologik va fiziologik jihatlari", "Jinsiy hayot psixogigiyenasi" kabi mavzularni o'qitish jarayonida ham sharq mutafakkirlarining qarashlari va ilmiy pedagogik g'oyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bu esa, mazkur muammoning ijtimoiy, psixologik va pedagogik jihatlarini ilmiy asosda kengroq o'rganish zaruratinini yuzaga keltiradi.

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shoumarov G'.B. Muhabbat va oila. - T.: O'qituvchi, 2006. - 145 b.
2. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. - T.: O'qituvchi, 2001. - 374 b.
3. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarj. - T.: Sharq, 2001. - 400 b.
4. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: ped.fan.dok. diss. - T.: 1998. - 317 b.
5. Abu Nosr Farobi. Fozil odamlar shahri. M. Mahmudov. -T.: Xalq merosi, 1993. - 224 b.
6. Муминов И.М. Абу Рейхан Бируни - выдающийся ученый энциклопедист. Общественные науки в Узбекистане. №10, 1971. - 29-44 с.
7. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-6-jild. - T.: Абу Бакр Ар Рози Духовиас медицина Душанбе. Ирфон, 1990. - 86 б.
8. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud ahloq. -T.: O'qituvchi, 1992. - 160 b.